

**TARIX O'QITISH METODIKASINING INSONIYAT TARAQQIYOTI
BILAN MOS RAVISHDA RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI****Valiyeva Gulchehra***Namangan tuman 2-son politexnikumi
tarix fani o'qituvchisi.***Parpiyeva Komila***Namangan tuman 2-son politexnikumi
kimyo fani o'qituvchisi.*

Annotatsiya: O'tmish va tarixiy xotira insoniyat tarixining barcha davrlarida e'tibor markazida bo'lib kelgan. Mazkur maqolada tarix o'qitish metodikasining insoniyat taraqqiyoti bilan mos ravishda rivojlanish xususiyatlari mahalliy va xorijiy manba'lar asosida tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: tarix, tarixshunoslik, tarix o'qitish metodikasi, tarixiy tafakkur.

O'tmish va tarixiy xotira insoniyat tarixining barcha davrlarida e'tibor markazida bo'lib kelgan. Bu e'tibor natijasida ilmiy tadqiqotlar va izlanishlar orqali tarixiy hodisalar, shaxslar va jarayonlar bilan bog'liq ko'plab savollarga javob izlangan. Ushbu jarayon inson o'tmishda nima sodir bo'lganligini yozishni boshlashi bilan va tarixshunoslikni paydo bo'lishiga asos bo'lgan. Tarix o'qitish deganda, tarixiy material vositasida o'quvchilarga bilim berish, ularni milliy istiqlol ruhida tarbiyalash va kamol toptirish vazifalarini amalga oshirish zarur bo'lgan jarayon, o'qituvchi va o'quvchilarning aqliy (ichki) hamda o'quv harakatlari (tashqi) jarayoni tushuniladi. Tarix kursining mazmuni deganda, birinchi galda tarix dasturida belgilab berilgan tarixiy bilimlar ko'lami, o'quv materiali: uning asl mazmuni, o'quvchilarning tarixiy materiallarni o'zlashtirish olgan bilimlaridan foydalana bilish sohasidagi o'quv usullari, ko'nikma va malakalari sistemasi, shu jumladan, ularni ilmiy tadqiq qilish ishlarining eng oddiy shakllarini egallashlari ko'zda tutiladi. Tarix va tarixiy jarayonlar, siyosiy-tarixiy vaziyat ularning ro'y berishidagi asosiy sabab va xususiyatlarini ilmiy jihatdan tadqiq etishda har tomonlama tahlil qilish tarixiy haqiqatning yuzaga chiqishida katta omil sanaladi. Ayniqsa, turli davrlarda yaratilgan tarixiy ilmiy asarlarda mualliflarning tadqiqot masalalariga turlicha yondashuvlari va fikrlari, xulosalarning turlichaligi, ularni ilmiy jihatdan chuqur tahlil qilish va tarixiylik, ilmiylik hamda xolislikka asoslanilgan eng to'g'ri xulosalarni chiqarish bugungi kun tarixchi mutaxassisleri oldida turgan muhim vazifalardan sanaladi. Bugungi kunda tarix fani sohasida ta'lim olayotgan talabalar tarixga oid asarlardan foydalanish, ularni tahlil etish kabi o'zlashtirish uslublari, ulardan foydalanish samaradorligini bilish haqidagi tarixiy tadqiqot uslublari va ilmiy-tarixiy haqiqatga erishish yo'llarini anglashi lozim.

Majburiy ta'limning vujudga kelish sabablari o'rganilganda, tarix darsi o'sha davrda ta'limga yuklangan vazifalarni bajarishda muhim rol o'ynaganini ko'rish mumkin. Armiya, davlat va sanoat institutlariga kerak bo'ladigan itoatkor va uyg'un fikrlaydigan shaxslarni tarbiyalashda tarix saboqlari muhim rol o'ynagan. Shu nuqtai nazardan, tarixni o'qitishning boshlanishini tizimli dars sifatida XIX asr boshlarida zamonaviy o'quv muassasalarida keng jamoatchilikka ta'lim berishni maqsadini amalga oshirish uchun o'qitilgan. Bu davrda tarix fanidan juda uzoq vaqt davomida asosan milliy o'ziga xoslikni rivojlantirish va itoatkor inson tarbiyalash maqsadda o'qitilgan. Ikkinchi jahon urushigacha tarix saboqlari madaniyatni singdirish asosida, itoatkor va yaxshi fuqarolarni tarbiyalash maqsadida olib borilgan. Biroq, ushbu davrda ta'lim demokratlashtirish, inson huquqlari ahamiyatiga ega bo'lish va urushlarning oldini olishda rol o'ynashi mumkinligi haqidagi fikr tarixni o'qitish tushunchasini o'zgartirdi. Bundan tashqari, texnologik va iqtisodiy o'zgarishlar hayotni murakkablashtirdi va odamlar ega bo'lishi kerak bo'lgan ko'nikma va malakalar diversifikatsiya qilindi. Ushbu hodisalar an'anaviy tarix darsini qaytadan ko'rib chiqishni talab etdi. 1960 yillarning oxirida Angliyada tarix darsi nomlar, son va raqamlar, hamda elementlar asosida o'qitilishi tanqid qilindi. Debatlar shu qadar avj olib ketdiki, ba'zi odamlar tarix kursini o'quv dasturidan olib tashlash kerak, chunki u talabalarni o'sha kun sharoitida hayotga tayyorlay olmaydi degan mulohazalarni o'rta qo'ydi. 60-yillarning oxirida ayniqsa Angliyada tanqid natijasida tarixni o'qitishda ta'lim oluvchini tarixiy bilim va munosabatdan tashqari kundalik hayotga qanday tayyorlashi mumkinligi keng ko'lamda tadqiq qilindi. Ijtimoiy so'rovnomalar o'tkazildi. Ushbu tadqiqotlar natijasida ta'lim oluvchilar tarix darslari orqali qanday ko'nikmalarni egallashlari mumkinligini aniqlandi. Boshqacha qilib aytganda, tadqiqot tarix darsini zamonaviy hayot bilan qanday bog'lash mumkinligini ko'rsatishda muhim rol o'ynadi. Angliyada tarix o'qitish sohasida olib borilgan tadqiqotlar 70-yillarda ham davom etdi. Angliyada "Maktablar assambleyasi tarixi" loyihasi amalga oshirildi va mazkur loyiha o'quvchilar orasida tarix darsida amaliy ko'nikma va malakalarni berish uchun ayniqsa muhim rol o'ynadi. Ushbu loyiha orqali tarixni o'qitish tadqiqotga, so'roqqa, dalillarni baholashga va baholangan dalillar orqali xulosa chiqarishga asoslangan bo'lishi kerakligi isbotlandi. Maktablarda o'quvchilar so'ronomalar asosida tadqiqot olib borish va detektiv kabi dalillarni baholash orqali o'tmishni o'rganish samarali ekani ma'lum bo'ldi. Shunday qilib, talabalar ilmiy fikrlash va ularga berilgan ma'lumotlarning ilmiy asoslanganligini aniqlash, shuningdek o'tmishni o'rganish kabi asosiy ko'nikmalar ega bo'lishlariga erishildi. Angliyada "Yangi tarixni o'qitish" deb nomlangan bu jarayon 1980 va 1990 yillarda tez sur'atlar bilan davom etdi. Tarix kursi talabalarni kundalik hayotga tayyorlashi kerakligini tushungan holda olib borilgan tadqiqotlar, ayniqsa so'nggi yillarda Kanada va AQShda davom etmoqda. Tarixiy hodisalarni his etgan holda birinchi manbalarga asoslangan holda o'rganishga bo'lgan harakatlar, "tarixiy

fikrlash ko'nikmalari" ni kun tartibiga olib keldi. 2000 yillarga kelib tobora muhim ahamiyat kasb etadigan tarixiy fikrlash qobiliyatlari tarixni ta'sirchan, samarali va ijodiy o'rganish usullaridan biri sifatida qo'llanildi. Tarixiy tafakkur ko'nikmalari tarixiy bilimlarni tadqiq qilish va uning mohiyatin tushunish asosida beshta kategoriyada jamlanadi.

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, XIX asrdan boshlab rasmiy ta'lim muassasalariga kirishni boshlagan tarix darslarining mazmuni va maqsadlarida jiddiy o'zgarishlar yuz berdi. Taniqli metodist A.I.Strajev aytganidek: «Tarix o'qitish metodi tarixiy material bo'yicha qilinadigan ana shu mantiqiy amaliyotlardan tashkil topadi». O'qitish metodlarini ba'zan o'quvchilarning bilish faoliyati, faollik darajasiga qarab klassifikatsiyalash tavsiya qilinadi. Bu tarzda ajratish o'qitish metodlaridan ko'ra, ko'proq o'qitishning umumiy xarakteriga taalluqlidir. 60- yillarda tarix o'qitish metodlari va ularni klassifikatsiyalash turlicha hal qilindi. Metodist A.I.Strajev «Tarix o'qitishning tashkil etilishi, metodlari va vositalari tarix fanining ma'lum ta'lim-tarbiya vazifalarini amalga oshirishga xizmat qiladi»— deydi. Biroq, u ham o'qitishning asosiy metodlarini tarixiy jarayonning o'zini o'rganish metodidan iborat qilib qo'yib, masalada noaniqlikka yo'l qo'yadi. A.I.Strajev quyidagi o'qitish metodlarini tavsiya qiladi:

- tarixiy faktlarni o'rganish metodlari;
- xronologiyani o'rganish metodlari;
- mahalliy tarixiy voqealarni o'rganish metodlari;
- asosiy tarixiy tushunchalarni shakllantirish metodlari;
- sabab-natija aloqalarni o'rganish metodlari;
- tarixiy jarayonning qonuniyatlarini ochib berish metodlari.

Ma'lumki, tarix o'qitish - o'qitish va o'rganishni tashkil etish jarayonidan iborat. Metodist A.Strajevning klassifikatsiyasidan ham ko'rinib turibdiki, u faqat o'qituvchining o'quvchilarni o'qitishini ko'zda tutadi, o'quvchilarning o'rganishini tashkil etish va ularning o'rganishiga o'qituvchining rahbarlik qilishini e'tiborga olmaydi. Ko'zga ko'ringan metodist V.G.Kartsev bu masalada boshqacha yo'l tutadi. U metodlar sistemasiga o'quv harakteriga ega bo'lgan belgilar («Bayon qilish metodi», «so'rash metodi») va umumiy didaktiv vazifalar («materialni o'rganish metodi», «mustahkamlash metodi», «bilimni tekshirish metodi» va boshqalar) ni emas, balki o'quvchilarning tarixiy voqealarni bilish qonuniyatlarini asos qilib oladi. Metodlar haqidagi nazariyaning metodologii asosini, ya'ni jonli mushohadadan abstrakt tafakkurga va undan amaliyotga o'tish tashkil etadi. Tarix mavzusiga kelsak, u ilgari sodir bo'lgan voqealar bilan shug'ullanadi. Tarix dasturidagi mavzular odatda o'quvchilarning kundalik hayoti va tajribalaridan uzoqda. Atrofimizdagi o'tmishdan hozirgi kungacha ko'plab tarixiy qoldiqlar va materiallar mavjud bo'lsa-da, tarix o'z mazmuni bo'yicha mavhum mavzu sifatida topilishi mumkin. Tarix darsining ushbu xususiyati tufayli, ayniqsa yosh o'quvchilar o'z vaqtlaridan ancha oldin sodir bo'lgan

voqealarni tushunishda muammolarga duch keladi. Boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, tarixni bugungi kun bilan bog'lamasdan o'qitishga harakat qilinganligi sababli, ba'zi o'quvchilar nazarida tarix darsi zerikarli, tushunarsiz qator sonlar, raqamlar va buyumlardan iboratdir. O'tmishimizni hozirgi kunga etkazishda foydalanadigan eng muhim elementlardan biri bu tarixiy muhit. Tarixiy muhitda binolar, yo'llar, qasrlar, tarixiy voqealar va tarixiy ob'yektlar bo'lgan ochiq joylar kabi ko'plab elementlar mavjud. Bundan tashqari, xotiralar, xatlar, xaritalar, gazetalar, rejalar, otkritkalar, shtamplar, tangalar, rasmlar, kitoblar va tarixiy narsalar tarixni o'qitishga hissa qo'shadigan elementlardir. Tarix darslarida tarixiy muhit va narsalardan unumli foydalanish orqali tarix darslarini yanada aniqroq va samaraliroq qilish mumkin. Tarix darslarida tarixni hozirgi kunga yetkazish va bu darslarni yanada tushunarli va qiziqarli qilishning usullaridan biri bu dars mazmuniga materiallar tayyorlash va tegishli o'quv texnologiyalaridan foydalanishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. F.Sh.Aqchayev. Tarix fanini oqitishda innovatsion texnologiyalar. Oquv- uslubiy qo'llanma. Jizzax-2014.8-b.
2. A.Harris, Teaching and Learning in the Effective School. Aldershot: Ashgate, 1999. –P.401.
3. I.S.Joldasov. Tarixni o'qitish metodikasi rivojlanishi tarixidan. "Science and Education" Scientific Journal. August 2020 / Volume 1 Issue 5.196-b.
4. Jalolov Jamol. Chet til o'qitish metodikasi. "O'qituvchi" nashriyot-matbaa ijodiy uyi, Toshkent – 2012.